

1877-1878-YILLARDAGI RUS-TURK URUSHINI KELTIRIB CHIQARGAN SABABLARI

Azimqulov Xolmuhammad Azimqul o'gli

Annotatsiya: *Aynan Krit orolidagi isyonni bostirishdagi turklarning vahshiyliklari natijasida Yevropa davlatlarining e'tibori Turkiyadagi xristianlarning haq-huquqsiz hayotiga qaratiladi. Ayniqsa Buyuk Britaniya va Rossiya bunga juda katta e'tibor beradi. Bu davrda Rossiya floti o'tish davrida edi.Ya'ni yelkanli yog'och kemalardan motorli metaldan yasalgan kemalarga o'tish davrida edi.Shuning uchun flot turli xil darajadagi kemalardan iborat edi.Qora dengizdagi rus floti uncha kuchli emas edi.Unda bironta zamonaviy harbiy kema yo'q edi. Hammasi oldingi davr qoloq kemalardan iborat edi.Ya'ni hammasi yog'och kemalar edi.*

Kalit so'zlar:*1877-1878-yillardagi rus-turk urushi,1866-1869-yillarda Krit oroldagi isyon,London konfrensiyasi (1871),Parij tinchlik konfrensiyasi (1856), Visel Levskiy, Odessiya.*

Har qanday urushning xususiyatini bilish uchun qanday sharoitda urush boshlandi, unga nima sabab bo'ldi, qaysi voqealar ta'sir o'tkazganligini bilib olish kerak bo'ladi. Xuddi shunday 1877-1878-yillardagi rus-turk urushining boshlanishiga bir qancha voqealar bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazgan.

Qrim urushini yakunlab bergan Parij tinchlik shartnomasiga ko'ra Usmonlilar imperiyasi xristian diniga mansub xalqlarga musulmonlar bilan teng huquq berish majburiyatini oladi. Bu haqda sultonning maxsus farmoni ham chiqadi.Lekin bu farmon vaziyatni deyarli o'zgartirmaydi.Sudda musulmon bo'lmagan shaxs(zimmi)ning musulmonga qarshi guvohligi baribir qabul qilinmaydigan bo'ldi.Oqibatda diniy mojarolarda boshqa din vakillari o'z huquqlarini himoya qila olmas edi.¹⁴

1866-1869-yillarda Krit orolida Gretsiyaga qo'shilish masalasida isyon bo'lib o'tadi.Isyonchilar asosan musulmonlar yashaydigan 5 ta shahardan tashqari butun orolni o'z qo'llariga olishadi.1869-yilda bu isyon Turkiya tomonidan shafqatsizlarcha bostiriladi, lekin ba'zi sohalarda yon berildi.Unga ko'ra orol o'zini o'zi boshqarish huquqini oladi va xristianlar huquqlari birmuncha mustahkamlanadi.Krit isyoni bostirilayotgan vaqtda turklarning Arkadi nomli monastrdagi vahshiyliigi butun Yevropani zir titratadi.Isyon turklar tomonidan bostirilayotgan paytda mahalliy aholidan 700 ta ayol va bolalar Arkadiy monastriga qamalib olib, turklarga taslim bo'lish o'rniga o'zlarini porox to'ldirilgan bochkalar yordamida portlatib yuborishadi.¹⁵

¹⁴ Кочуков С.А.Историк Д.И.Иловайский о русс-туретской войне 1877-1878 гг.

¹⁵ Беляев Н.И.Русско-туретская война 1877-1878 гг.М.1956 .с-18

Aynan Krit orolidagi isyonni bostirishdagi turklarning vahshiyliklari natijasida Yevropa davlatlarining e'tibori Turkiyadagi xristianlarning haq-huquqsiz hayotiga qaratiladi. Ayniqsa Buyuk Britaniya va Rossiya bunga juda katta e'tibor beradi.

Qrim urushida Rossiya yutqazib qo'yib kamgina hududidan ayriladi. Shuningdek, Qora dengizda flot saqlash huquqidan mahrum bo'ladi. Shundan so'ng rus diplomatiyasining asosiy vazifasi Qora dengizda flot saqlash huquqini qaytarib olish bo'lib qoladi. Lekin bu oson ish emas. Chunki 1856-yildagi Parij tinchlik shartnomasidagi shartlarning bajarilishiga Angliya va Fransiya kafolatchi davlat sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari Qrim urushi davrida Avstriya dushmanlik pozitsiyasiga o'tib olgan edi. O'sha paytdagi Yevropaning buyuk davlatlaridan faqat Prussiyaning Rossiya bilan munosabatlari yaxshi bo'lgan.

Aynan Prussiya bilan munosabatlarning yaxshiligi kelajakda Qora dengizda o'z huquqlarini tiklashda Rossiyaga juda qo'l keldi. Prussiya tomonidan Germaniyani birlashtirishda Rossiya atayin neytral pozitsiyada turdi. Oqibatda kansler Bismark yirik Germaniya imperiyasini shakllantirdi. Fransiya-Prussiya urushida Fransiya yutqazib qo'yib vaziyati og'irlashganidan foydalanib Rossiya Parij tinchlik konferensiyasidagi Rossiyaning Qora dengizda flot saqlamasligi to'g'risidagi qarorni bekor qilishga kirishadi.¹⁶

1870-yil oktyabr oyida Rossiya Qora dengizda flot saqlamaslik to'g'risidagi qarorga boshqa bo'ysunmasligini e'lon qiladi. Endi buni xalqaro konferensiyada tasdiqlatib olishi kerak edi. 1871-yil 13-mart kuni London konferensiyasida Bismarkning qo'llab-quvvatlashi bilan Rossiya qaytadan Qora dengizda flotga ega bo'lish huquqini qaytarib oladi. Lekin bu Rossiyaga kamlik qilar edi. Endi Qora dengiz atroflarini butunlay egallab o'z pozitsiyasini mustahkamlashi kerak edi.

1856-yilgi Parij tinchlik konferensiyasining 8-moddasiga ko'ra Buyuk Britaniya va Avstriya mabodo Rossiya-Turkiya urushi yuzaga kelsa, Turkiya tarafdin kirishi belgilab qo'yilgan edi. Shuning uchun Rossiya Turkiya masalasida ehtiyotkorona siyosat yurgizadi va buyuk davlatlar bilan kelishib ishlashga majbur bo'ladi.

Rossiya Turkiya bilan yakkama-yakka urushish uchun boshqa davlatlar bilan yoki kelishishi kerak edi yoki ular boshqa ishga chalg'ishi kerak edi. Rossiya o'z paytini kutishni boshlaydi. Usmonlilarning saqlanib qolinishini eng ko'p Angliya va Fransiya istardi. Chunki Turkiya ular uchun juda katta foyda manbayi edi. Fransiya 1871-yilda mag'lub bo'lgandan keyin Angliya yakka o'zi Turkiya uchun Rossiya bilan urushish strategik maqsadlariga to'g'ri kelmasligini tushunib yetadi. Chunki Fransiya o'zining asosiy e'tiborini ashaddiy dushmani Germaniyaga qaratgan edi. Bularning hammasi Rossiya uchun qulay vaziyatni yaratib beradi.

1875-1877-yillarda "Bolqon inqirozi" sodir bo'ladi. Aynan shu inqiroz janubiy slavyanlar orasida milliy-ozodlik harakatining faollashuviga va Rossiyaning Turkiya bilan hisob kitob qilib olishiga sabab bo'ladi.

¹⁶ Золотарёв В.А. Русско-турецкая война 1877-1878 гг. В отечественной историографии. М., 1978. с-41

XIV-XVI asrlarda Usmonlilar imperiyasi Bolqon yarimorolini egallab oldi. Bunda eng ko'p jabr ko'rgan xalqlar bu slavyanlar bo'ldi. Usmonli turklar imperiyasi klassik harbiy-feodal davlat edi. Uning qudrati bosib olgan xalqlarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan. Turklar tomonidan Bolqonning egallanishi yarimoroldagi xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotida tub o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu mintaqada iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy va madaniy sohada orqaga ketish boshlandi.¹⁷

Asrlar davomida Bolqon xalqlari Usmonlilarga qarshi davlatning tinka madorini quritadigan isyonlar, ozodlik harakatlarini olib bordi. Bu natijasiz ketmadi: Usmonlilar asta-sekinlik bilan barcha sohada inqirozga keta boshladi. Dehqonlar ishlashdan bosh tortishgan, to'lovlarni to'lashdan voz kechishgan va o'rmonlarga qochib ketib tinimsiz qarshiliklar harakatlarini yuzaga keltirishgan, partizan urushlari ko'rinishida tizimli urushlar olib borishgan. Bunday harakatlar vakillarini janubiy slavyanlarda "gayduklar", Gretsiyada esa "kleftlar" deb atashgan. Usmonlilar hokimiyati ularga qarshi kurashishga ojizlik qilishgan. Chunki gayduklarni mahalliy aholi qo'ldan kelgancha qo'llab-quvvatlashgan.¹⁸

Bolqonda xalqlarning milliy-ozodlik harakatlari XIX asrning 60-70-yillarida keng yoyildi. Bu paytga kelib faqat Gretsiya o'zining rasmiy mustaqilligiga ega edi. Chernogoriya yillar davomida qattiq qonli kurashlardan keyin o'z mustaqilligini olgan bo'lsada rasman tan olinmagan edi. Serbiya va Ruminiya qaram knyazliklar hisoblangan va har yili Turkiyaga to'lov to'lab turgan. Bolgariya, Bosniya va Gersogovina to'liq Turkiyaning mustamlakasi hisoblanib bu yerlarda turk feodallari cheksiz hokimiyatga ega bo'lishgan. Bunday holat haqida bolgar inqilobchisi Xristo Botev shunday yozgan: "Biz qulmiz. Biz yelkamizning ustidagi boshimiz o'zimizniki ekanligini ham aytolmaymiz."

Bolqon yarimorolida tashkil qilingan milliy-ozodlik harakatlaridan eng kuchli ta'sirga ega bo'lgani Bolgariyadagi harakat edi va u 2 ta oqimga bo'lingan: birinchisi burjuaziya kayfiyati va manfaatlarini himoya qiluvchi liberallar hamda ikkinchisi shahar hunarmandlari, ziyolilar va dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi inqilobiy-demokratlar. 60-yillarda inqilobiy –demokratik oqimni o'z davrining mashhur yozuvchisi Georgiy Rakovskiy boshqargan. Rakovskiy fikricha mustaqillikka erishish uchun alohida bir hududning kurashi emas, balki butun bir davlat miqyosida qurolli kurash olib borish kerak edi. Burjuaziya liberallari G'arb yordamida mustaqillikni qo'lga kiritishni ilgari surardi va buni Rakovskiy har doim qoralab chiqqan.

Rakovskiyning tarafdorlari (ularni "mladitlar", ya'ni yoshlar deb atashgan) asosan xorijda muhojirlikda bo'lib, turli xil yo'llar bilan o'z vatanlariga qaytib, inqilobiy tashviqotni boshlab yuborishadi. Bolqon tog'larida isyonga tayyorgarlik ko'rayotgan dehqonlarning drujinalari shakllanishni boshlaydi. 1867-yil oktyabrda Rakovskiy o'ladi. Lekin harakat bu bilan to'xtamaydi. 1868-yil iyun oyida Bolgariyada umumxalq isyonini boshlash uchun

¹⁷ Данченко С.И..Болгария,Россия и русско-болгарские связи в научном творчестве А.А.Улуныя

¹⁸ Ростунов Иван.Русско-туретская война 1877-1878 гг.Москва,1977.с-7

Stefan Karaj va Xaji Dimitr boshchiligida yirik harbiy qismlari kirib keladi. Ularga qarshi turklar juda katta harbiy kuchni tashaydi va barcha isyonchilar rahbarlari qirib tashlanadi.

Bu holatga tanqidiy baho bergan bolgar inqilobchilari shunday xulosaga keldiki, isyonni Bolgariyaning o'zida tayyorlash kerak. Endi bolgar milliy-ozodlik harakati yangi bosqichga ko'tarildi. Unga mashhur bolgar inqilobchisi Vasil Levskiy va inqilobiy yozuvchi Lyuben Karavelov boshchilik qiladi. Lyuben Karavelovning fikricha Bolgariyaning mustaqil bo'lishiga Rossiya yordam berishi kerak.

1869-yil kuzida Buxarestda Vasil Levskiy va Lyuben Karavelov boshchiligida Bolgar inqilobiy markaziy komiteti (BIMK) tashkil qilinadi. Bir paytning o'zida ular Bolgariyada ham yashirincha inqilobiy kuchlarni shakllantirishni boshlashadi va ularni qurollar bilan ta'minlab, harbiy bilim berishadi. 1872-yilda BIMK rahbarligiga Karavelov saylanadi, Levskiyga esa Bolgariyaning o'zida inqilobiy tashkilotga rahbarlik qilish vazifasi yuklanadi. Yurtiga qaytgach Vasil Levskiy bor e'tiborini umumxalq isyonini tayyorlashga qaratadi. Shu qilmishi uchun 1873-yilda Vasil Levskiy va uning sheriklari Sofiyada qatl qilinadi.¹⁹ Mamlakatda ommaviy hibsga olishlar va qatllar boshlanib ketadi. Natijada inqilobiy tashkilot vaqtinchalik o'z faoliyatini to'xtatadi va Lyuben Karavelov inqilobiy faoliyatini yakunlab diniy ish bilan shug'ullanishni boshlaydi.

Omadsizliklarga qaramasdan, janubiy slavyanlarning milli-ozodlik harakatlari davom etadi. 1875-yil iyunda Gersogovinada, sal o'tib Bosniyada isyonlar boshlanadi. Bu isyonlarni inqilobiy shoir Xristo Botev boshchiligidagi bolgar inqilobchilari faollashtirgan. Xristo Botevning sherigi o'sha paytda Stefan Stambolov bo'lgan. Ikkalasi ham Rossiyada o'qigan va rus inqilobchilarining ijodi bilan tanish edi.

Bolgar inqilobchilari keng qamrovli harbiy to'qnashuvga kuchli tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Ular Gersogovina isyonchilari bilan aloqa o'rnatish uchun Belgradga o'z vakillarini yuborishadi. Stefan Stambolov 1875-yil sentyabr oyida Gersogovinaga kelib isyon boshlashga xalqni chorlaydi. Lekin xalqni uni ommaviy qo'llab-quvvatlamaydi. Natijada isyon kutilgan natijani bermaydi va barcha isyonchilar qatl qilinadi, Stambolov zo'rg'a Ruminiyaga qochib ketadi.

Bu omadsizlik ham bolgar inqilobchilarini o'z yo'lidan qaytarmaydi. Navbatdagi isyon 1876-yil 11-mayga belgilandi. Lekin bu harakatni turklar oldindan sezib qolganligi uchun isyon rejadagidan oldinroq boshlanadi. 20-aprel kuni birin-ketin Bolgariya hududlarida isyonlar boshlanadi. Konstantinopoldagi ingliz elchisi Elliot bu isyonni har qanday yo'l bilan bostirish kerakligini turklarga maslahat beradi. Natijada turklar katta kuch tashaydi. Oqibatda kuchlar o'rtasida katta farq bo'lganligi uchun milliy-ozodlik harakati vakillari yana yutqazib qo'yadi. Aprel isyoni yakuniy nuqtani Xristo Botev qo'yadi. U o'zining Ruminiyada shakllantirilgan harbiy qismi bilan kema orqali turklarga qarshi hujumga

¹⁹ Ростунов Иван. Русско-турецкая война 1877-1878 гг. Москва, 1977. с-8

o'tadi.Oqibatda yana kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi uchun isyonchilar yutqazib qo'yadi,Xristo Botev yaralanib tez orada vafot etadi.

X.Botev o'limidan keyin u shakllantirgan guruh bir qancha mayda bo'laklarga bo'linib ketadi va tez orada o'z faoliyatini tugatadi.Bolgar vatanparvarlarining omadsiz urinishlari shu narsani ko'rsatib berdiki,turklar kuch jihatdan inqilobchilardan ancha ustun ekan va inqilobchilar orasida yagona rahbarlik yo'q ekan.Aprel isyonida turklar isyonchilardan yaxshiyona o'ch olishdi:30 000 dan ziyod isyonchi qatl qilindi.

Bolqon xalqlariga Usmoniy turklarga qarshi kurash tajribasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, g'olib chiqish uchun o'zlarining kuchlari yetmas ekan.Shuning uchun chetdan yordam kuchi olishlari kerak edi.Ularning yakkayu yagona umidi Rossiya edi.Bolqon xalqlari Rossiya xalqlari bilan oldindan uzviy aloqada bo'lgan.Ular o'zaro madaniy,til, urf-odat va kelib chiqish bo'yicha aloqador edilar.

XVI asrdayoq bolgar xalqlarida "Ivan amaki" haqida xalq og'zaki ijodi paydo bo'lgan bo'lib,unga ko'ra Ivan kelib bolgarlarni mustamlakachilikdan qutqaradi. XVIII-XIX asrlar davomida Rossiya bir necha marta Turkiyaga qarshi g'alabali urushlar olib bordi.Aynan shu g'alabalar Usmonlilarning Bolqonda zaiflashuviga va Bolqon xalqlarining mustaqillik uchun kurashining kuchayishiga olib keladi. Rus-turk urushlari davomida Rossiya va Bolqon xalqlarining harbiy hamkorligi paydo bo'ldi va kuchaydi.

XIX asr 60-70-yillaridagi Bolqon xalqlarining Turkiyaga qarshi milliy-ozodlik harakatlarida rus xalqi vatanparvarlarni moddiy,ma'naviy va harbiy sohalarda qo'llab-quvvatlashdi.Aynan shu davr davomida o'zaro aloqalar yanada kuchaydi.

Bolqondagi voqealarga birinchilardan bo'lib Janubiy Rossiya ishchilari ittifoqi munosabat bildirdi.1875-yil yozida Odessada ishchilar ittifoqining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda Gersogovinadagi qo'zg'olonga ko'ngillilarni yuborish va oziq-ovqat bilan yordam berish masalasi ko'rib chiqildi. Butun Rossiya bo'ylab moddiy yordam uchun pul yig'ildi.Yordam pulini asosan ishchi qatlami berdi.Moddiy yordam bilan bir paytda odamlarning ko'ngilli sifatida Bolqonga faol ketishi kuchaydi.Rossiyaning barcha nuqtalaridan minglab ko'ngillilar,harbiylar,ishchilar o'z xohishi bilan qardosh xalqlarga yordam berishga shoshildilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Rus armiyasida urush oldidan ancha o'zgarishlar qilindi va ham kadr jihatidan,ham qurol jihatidan yetarli darajada ta'minlandi.Bu tayyorgarlikka 60-70-yillardagi islohotlar ancha ijobiy ta'sir qildi. Bu islohotlardan ko'zlangan maqsad feodal shakldagi armiyani Yevropaga xos kapitalistik ko'rinishdagi zamonaviy armiyaga aylantirish edi.Va bu maqsadga deyarli erishildi,armiya to'liq bo'lmasada deyarli zamonaviylashdi.Lekin bu islohotlar doimiy ko'rinishda davom etmadi.Shuning uchun armiyada qoloq feodal ko'rinishning elementlari saqlanib qoldi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Валентин Масалский.Скобелев.Москва,1998.г
 2. Русско-туретская война 1877-78. –М.:Воениздат,1977.г
 3. Ростунов Иван.Русско-туретская война 1877-1878 гг.Москва,1977.г
 4. Пузиревский А.Руская армия перед войной 1877-1878 годов.С-Петербург.,1889. Г
- Золотарёв В.А.Русско-туретская война 1877-1878 гг. В отечественной историографии.М.,1978. г